



## RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YUTUQLARI

Dadabayeva Naziraxon Abdurazaqovna

*Andjon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o`quv markazi  
o`qituvchi Telefon: 93 444-13-66*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarni davlat tizimiga joriy qilish, respublikamiz ijtimoiy - iqtisodiyotini yaxshilashning asosiy omili sifatida ko`rib chiqilgan.*

**Kalit so`zlar:** *axborot, raqamli iqtisodiyot, tendensiya, raqamli texnologiyalar, elektron komersiya.*

Bugungi zamonda raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar nafaqat davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtiradi va ijtimoiy sohada odamlarga katta qulayliklar yaratadi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar ijobiy iqtisodiy o`sinhiga zamin yaratadi: mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, va ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi, va yana bir muhim afzallik - korrupsiyaga chek qo`yadi.

Savdo sohasidagi AKT xizmatlaridan, internet xizmatlaridan foydalanish savdo operatsiyalaridagi xarajatlarni keskin kamayishiga, eksport-impord operatsiyalarini sodalashtirishga olib keladi va bular quyidagi ko`rinishda bo`ladi: Elektron auksionlar, savdo shahobchalari, internet birja, tovar va xizmatlar katalogi, elektron raqamli banklar, elektron tijorat, mobil telefonlar yordamida savdo yuritish, elektron pochta, elektron marketing vax.k. bu yerda elektron banklar mijozlarga hisob-raqamlarini ochishga va turli hil moliyaviy operatsiyalarni Web saytlar yordamida bajarishga imkon beradi.

Zamonaviy ta'limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Elektron savdo bu virtual iqtisodiy muhit bo`lib, internet texnologiyalari yordamida elektron to'lovlarni amalga oshiradi.

Elektron biznes ko`rinishlari: masofaviy o`qitish (e-education) tarmoq (setevye) kutubxonalar xizmati, tibbiy xizmatlarini, maslahatlarni internet orqali berish (e-health), internet-lizing. Elektron biznes jarayonida virtual magazinlar kuniga 24 soat ishlaydilar va xaridor uchun zarur ma'lumotlarni bir daqiqa ichida tayyorlab beradi. Elektron savdoda sotuvchilar va xaridorlar internet texnologiyalari yordamida uchrashadilar va kelishuv shartnomalarini tuzadilar. "Raqamli dunyo"da ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar, kompaniya va firmalar o`rtasidagi savdo munosabatlar raqamli banklarning asosiy faoliyatiga aylanadi. Raqamli banklar ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozlar bilan "uchrashadi" va mijozning qiziqtirgan savollariga atroflicha javob beradi, ularga hilma-hil xizmatlarni taklif qiladi, maqsadli kreditlarni kichik foizlarda taklif qiladi.

Har qanday cheklovlar yo`q bo`ladi. Raqamli banklarda murojaat markazlari, bankomatlar, onlayn va mobil bank xizmatlari ishlab turibdi. Hozirgi vaqtga kelib korxonalar, kompaniyalar va banklar xo`jalik faoliyatini aks ettiruvchi zarur ma'lumotlarni fayllarga kiritib elektron arxivlarda saqlashmoqdalar. Bu juda qulay, ishonchli va xavfsiz, uzoq davrga ma'lumotlarni dahlsizligini saqlabturadi. Masalan, Rossiyada ma'lumotlar



jamlamasi korporativ shaklda ETLAS elektron bibliotekasiga joylashgan. Hozirgi kunga kelib elektron axborotlashtirish iqtisodiyotning barcha jabhalarini qamrab oldi. Elektron aloqa vositalari orqali davlat idoralari, biznes muhit, shuningdek, hukumat va uning xizmatlari iste'molchilari -biznes hamda aholi o'rtasida axborot hujjat aylanishi ta'minlanadi. Elektron axborot, monitoring va boshqaruv tizimlari barcha zamonaviy ishlab chiqarish va yirik xizmat ko'rsatish sohalari, chunonchi, aholini elektr, suv va gaz bilan ta'minlash sohalari qamrab olinadi.

Elektron boshqaruv barcha turdagi transport kommunikatsiyalari, shu jumladan, umumdavlat vadavlatlararo avtomobil yo'llari bilan ta'minlanadi. Sug'oriladigan dehqonchilik tizimida elektron boshqaruv joriy etiladi Intelktual g'oya va innovatsiyalarni boshqarish keng tarqalgan va jamoatchilik tomonidan tan olingan zaruriyat bo'lib, O'zbekistonda ham bu Zamonaviy ta'limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1- noyabrdagi "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida" PQ-3365-son qarori bunga misol bo'la oladi.

Qarorda "Ilg'or oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan kichik innovatsion korxonalarini yaratish orqali ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash" kabi vazifalarni belgilanganligi bu sohada intellektual g'oya, bilim va innovatsiyalarni boshqarishni takomillashtirishni talab etadi. Korxonalar biznesjarayonini tashkil etishda moddiy resurslarning boshqarishni avtomatlashtirilishidan so'nggi jarayon bu nomoddiy resurslarni ham boshqarishni avtomatlashtirish hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi?

Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat utadi."Respublikamizda 2017 yilda qabul qilingan Harakatlar strategiyasini [1] amalga oshirish sharoitida mamlakatning raqobat bardoshligini oshirish, iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, innovatsiyalarni keng joriy etish va shular asosida resurslardan oqilona foydalanish kabilar raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillaridan hisoblanadi.

Chunki boshqaruvda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, mamlakatda elektron hukumat tizimini joriy etish muammosini, ijtimoiy rivojlanishning ko'p variantlilik va muqobilligini e'tirof etishga asoslangan. Prezidentning 2018 yil 19 fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonini qabul qilinishi ham sohani jadal rivojlantirishni maqsad qilib olinganligini ifodalaydi.

Yagona raqamli makon dasturi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalar ishtirokidagi loyihalar hissasini oshirish zarurligi, 2019 yilda kamida 200 million AQSh dollari, 2020 yilda esa investitsiyalar, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalar hajmini 500 million AQSh dollariga yetkazish vazifasi qo'yilgan edi. Shuningdek, qarorda «O'zbektelekom»



kompaniyasining nufuzini oshirish, «O'zmobayl» milliy mobil aloqa operatorini rivojlantirish bo'yicha choratadbirlari belgilagan [2]. Rivojlangan yirik G-20 davlatlar ichida Janubiy Koreya, Angliya, Germaniya, Shvesiya, Shveysariya, Yaponiya va Irlandiya yetakchi o'rinlarni egallab kelishmoqda. "The Economist" jurnalining fikricha, "Raqamli iqtisodiyot" "fuel of the future" ya'ni "Kelajak yoqilg'isi" bo'lib daromad yaratuvchi-ishlab chiqaruvchiga aylangan [3]. Raqamli iqtisodiyot mahsulotlari: - elektron komersiya (birja, savdo makonlari);

Zamonaviy ta'limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

- elektron biznes (elektron ko'rsatkich, elektron pochta, elektron o'qitish ta'limi);
- elektron banking (elektron to'lovlar, elektron pochta, internet savdolar);
- elektron savdo (tovar va hizmatlarni masofaviy sotish, internet magazinlar).

Raqamli texnologiyalar bilan bog'liqlikda yashash uchun ikki ko'nikmani o'rganishimiz kerak. Birinchisi, foydali axborotni saralashni o'rganish. Sodda qilib aytganda, ba'zida oddiy narsalarga e'tibor bermasdan, ularga boshqacha ko'z bilan qarash, lozim bo'lganda ko'ngilchan bo'lish. Bu holatda yangiliklar va jurnallar tahlilchilari hamda sharhlovchilariga ishonish kerak.

Ikkinchisi, biz boshqalar uchun saralovchi rolida bo'lishni o'rganishimiz lozim. Hozirgi davrda sivilizatsiya rivojlanishining bosh tendensiyalaridan biri-shaharlarda istiqomat qiluvchi aholining ko'payishi va shahar asosiy iqtisodiy drayverlarga aylanib kelishi. Tabiiyki, shu nuqtai nazardan shaharlarda istiqomat qiluvchi aholi uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratilishi muhim vazifadir. Va shu tarzda raqamli texnologiyalar katta ko'mak beradi. Raqamli texnologiyalar shaharlarni boshqarish tizimini yangi bosqichga ko'taradi: nafaqat vaqt va mablag'larni keskin sarflaydi, shu bilan birga keng aholini jamg'arishga imkon yaratadi.

So'nggi yillarda dunyoda "Raqamli shahar" konsensiyasi ommalashmoqda - o'ta zamonaviy, yangi qiyofaga ega shahar. Agarda biz ham shaharlarimizni zamonaviy tendensiyalarga mos rivojlantirmoqchi bo'lsak, aholi va mehmonlarimiz uchun qulay shart-sharoit yaratmoqchi bo'lsak, mazkur masala biz uchun dolzarb ahamiyatga ega. Barcha sohalrning rivojlanishida uzoqni ko'zlab yuritilgan iqtisod yotadi.

Raqamli texnologiyalarni iqtisodga tadbiiq qilish butun boshli tizimning barqaror ishlashini ta'minlaydi. Raqamli iqtisodiyot bu raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyat bo'lib, iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish hisobiga mehnat unumdorligi va mahsulotning

Zamonaviy ta'limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

raqobatbardoshligiga, ishlab chiqarish xarajatlarini pasayishi, yangi ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi.

Qaerda "Raqamli iqtisodiyot" va "Elektron hukumat"ga o'tilgan bo'lsa, odamlarning og'iri yengil bo'layotgani, davlatning katta-katta sarf-xarajatlari tejalayotgani, korrupsiyaning oldi olinayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarning o'ziga xos tomonlari shundaki, axborotlar ishlab chiqaruvchi kuchlarga aylanib, mehnat unumdorligini oshiradi, "qo'shimcha" daromadlar yaratishga hissa qo'shadi,



ularning sifatini oshiradi, xavfsizligi ta'minlanadi, transaksion harajatlarni kamaytiradi va ishlab chiqaruvchilar hamda iste'molchilar manfaatini oshiradi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlis palatalariga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotni yo'lga qo'yish orqali iqtisodiy o'sishini barqarorlashtirish haqidagi quyidagi fiqrlarini keltirish o'rinlidir: "Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?"

Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga eng og'ir illat - korrupsiya balosini yo'qotishda ham samarali vositadir."

#### REFERENCES:

1. Sh.M.Mirziyoev. "Mamlakatimizni 2016 yili jtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari"ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.
2. "Ishonch" gazetasi 2017 y. 17 yanvar. №7-8(3825).
3. Teoriticheskaya ekonomika: realnost, virtualnost mifot-vorchestvo. Moskva. M.G.U. 2009
4. China's Digital Economy a Leading Global Force. MGI Discussion Paper, August, 2017. Elektronnaya ekonomika. M. 2017, avtorskiy kollektiv.
5. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 |CSPI CONFERENCE 3 |2021Zamonaviy ta'limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
6. A.J. Seytov, F.X. Abdumavlonova. Reshenie geometricheskix zadach s pomosh'yu matematicheskogo paketa MAPLE. Academic research in educational sciences, 2021. T.2 №6 Pp.933-941.
7. S.Kh.Khasanova A.J.Seytov, A.J. Khurramov, S.N.Azimkulov, M.R.Sherbaev, A.A.Kudaybergenovyu. Optimal control of pumping station operation modes by cascades of the Karshi main canal. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 2021. Tom 8. №4. Pp. 17177-17185.
8. A. J. Seytov A. R. Kutlimuradov R. N. Turaev E. M. Maxkamov B. R. Xonimkulov. Optimalnye upravleniya vodnix resursov krupnix magistralnix kanalov s kaskadom nasosnix stansiy irrigatsionnix sistem. academic research in educational sciences volume 2
10. AJ Seytov, BR Xanimkulov, M Gaipov, O Xamidullaeva, NK Muradov. Chislennie algoritmi resheniya zadach optimalnogo academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-8-153-160 Academic Research, Uzbekistan 159 www.ares.uz



Upravleniya ob'ektami karshinskogo magistralnogo kanala. Academic research in educational sciences. T. 2 № 3 pp. 1145- 1145.

11. A.J. Seytov, B.R. Xanimqulov, M.A. Gaipov, M.R. Yusupov. Zarafshon daryosi oqimining hosil bo'lishiga atmosfera yog'inlari va havo haroratining ta'siri. Academic research in educational sciences. T.2 № 5. Str. 156-162. 11. A.A. Kudaybergenov A.J. Seytov, A.R. Kutlimuradov, R.N. Turaev, N.K. Muradov. Mathematical model of optimal control of the supply canal to the first pumping station of the cascade of the Karshi main canal. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. T. 8 № 3 pp. 16790- 16797.

12. A.J.Seytov, A.J. Khurramov, S.N.Azimkulov, M.R.Sherbaev, A.A.Kudaybergenov. S.Kh.Khasanova. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. T.

13. . A.V.Kabulov, A.J.Seytov, A.A.Kudaybergenov, Kriteriy upravleniya zadach operativnogo upravleniya vodnimi resursami ob'ektov vodoxozyaystvennix sistem. ILIM ham JAMIYET. science and society Scientific-methodical journal Series: Natural-technical sciences. Social and economic sciences. Philological sciences № 2 2020. Pp.6-7.

14. Seytov A. J., Kudaybergenov A. A., Xonimkulov B. R. Modelirovaniya dvumernogo neustanovivshegosya dvijeniya vody na otkritix ruslax na osnove proekcionnogo metoda sbornik dokladov Respublikanskoy nauchnotexnicheskoy konferensii «Innovatsionnie idei v razrabotke informatsionno kommunikatsionnix texnologiy i programmnix obespecheniy» 15-16 maya 2020 goda. Samarqand. Str. 60-63.

15. Raximov Sh. X., Seytov A. J., Kudaybergenov A. A. Kriterii upravleniya zadach operativnogo upravleniya vodnimi resursami ob'ektov vodoxozyaystvennix sistem. Abstracts of IX International Scientific and Practical Conference Kharkiv, Ukraine 2-4 August 2020. Str. 125-131.

16. Mekhriban Salaeva, Kakhramon Eshkaraev, Aybek Seytov. Solving mathematical problems in unusual ways with excellent limits. European Scientific Conference. Penza, 17 maya 2020 goda rr. 254-257.

17. A.Seytov. Optimalnye metodi upravleniya vodnix resursov v krupnix magistralnix kanalax irrigatsionnyx sistem. AGRO ILM - O'ZBEKISTON QISHLOQ VA SUV XO'ALIGI. Maxsus son. 2020. Tashkent. Str. 84-86.

18. Sh.X. Raximov, A.J. Seytov, A.A. Kudaybergenov. Optimalnoe upravlenie raspredeleniem vody v magistralnix kanalax irrigatsionnix sistem. ILIM ham JAMIYET. SCIENCE and SOCIETY Scientific-methodical journal Series: Natural-technical sciences. Social and economic sciences. Philological sciences. pp. 8- 10.